








Elektron onlayn-auksionda yer uchastkasi sotib olish xarajatlarini qoplab berish tartibi

Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen **elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkasi sotib olish xarajatlarini qoplab berish tartibi** haqida bilib olasan.
	**Elektron onlayn-auksion** — bu **imtiyozli insonlarga** yer uchastkasini internet orqali sotib olishga yordam beradigan tizim.
	**Imtiyozli insonlar:** • Ayollar daftari • Yoshlar daftari • Temir daftarga kiritilgan insonlar.
	Sen auksionda yer sotib olmoqchi bo‘lsang, davlat jamg‘armalari senga yer sotib olish xarajatlarini to‘lab beradi.

	**Yer sotib olish xarajatlarini to‘lab beradigan jamg‘armalar:** ● Saxovat va ko‘mak ● Ayollar daftari ● Yoshlar daftari jamg‘armalari.
	Senga yer uchastkasi sotib olish uchun jamg‘armalar hisobidan faqat bir marta to‘lov to‘lab beriladi.
	Sen elektron auksionda yer sotib olish uchun **pullik yordam** olmoqchi bo‘lsang: ● “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga borib ● yoki **my.gov.uz** internet manzili orqali **ariza berishing** mumkin.
	Sen “Inson” ijtimoiy xizmatlari markaziga murojaat qilsang so‘rovnomani **ishchilar yordamida** to‘ldirasan.

	Sen my.gov.uz internet tizimi orqali ariza bersang so‘rovnomani **o‘zing** to‘ldirasan.
	Sen auksionda yer sotib olgan kundan boshlab **3 oy ichida** xarajatni to‘lab berishlari haqida murojaat qilishing kerak.
	Agar 3 oydan keyin ya’ni 4 5 oydan keyin murojaat qilsang arizang ko‘rib chiqilmaydi.
	Bir martalik to‘lov yerni auksionda sotib olish xarajatidan kelib chiqib, bazaviy hisoblash miqdorining **100 baravarigacha** (o‘ttiz to‘rt million so‘m) to‘lab beriladi.

	Bir oilada ikkita nogironligi bor inson bo‘lsa ham 34 (o‘ttiz to‘rt) million so‘mgacha pul to‘lab beriladi.
	Xarajat miqdori 34 (o‘ttiz to‘rt) milliondan ko‘p bo‘lsa ham, bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha to‘lab beriladi qolgani to‘lab berilmaydi.
	**Bir martalik to‘lovni olish uchun:** • sen yoki oilangdagi insonlarning nomida oxirgi 12 oyda uy yoki yer bo‘lmasligi kerak • yerni oxirgi 3 oy ichida auksionda sotib olgan bo‘lishing kerak • yer O‘zbekistonda joylashgan bo‘lishi kerak • senda yoki oilangdagi insonda nogironlik bo‘lishi kerak • sen yoki oilangdagi inson Temir daftar, Ayollar daftari, Yoshlar daftaridan birida bo‘lishi kerak.

	Sening ma’lumotlaring talablarga mos kelmasa auksion uchun bir martalik to‘lov ajratilmaydi.
	Auksion uchun bir martalik to‘lov berish rad qilinsa bir kunda **“Inson” ijtimoiy markazlari** yoki **my.gov.uz** orqali senga xabar yuboriladi.
	Bir martalik to‘lovni boshqa sabablar bilan rad etish mumkin emas.